MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
AVGUST 8-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: https://oak.uz/pages/4802

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar

Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT UNIVERSITETI

Elektron nashr, 2026-yil, avgust.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:
Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA

IQTISODIYOTGA TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING SAMARALI DAVLAT BOSHQARUVI..... 9
Amirov Otabek Xudoyberdi o‘g‘li

IQTISODIYOTGA TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING SAMARALI DAVLAT BOSHQARUVI

Amirov Otabek Xudoyberdi o‘g‘li
Hamkorbank ATB universal bank xizmatlari ofisi iste’mol krediti menejeri
E-mail:amirovotabek1999@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada iqtisodiyotga to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni (TTXI) jalb etishning nazariy asoslari, zamonaviy davlat boshqaruvi mexanizmlari hamda O‘zbekiston sharoitida investitsiya siyosatini takomillashtirish yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, investitsiya muhitini yaxshilash, institutsional islohotlar, raqamlashtirish va hududiy rivojlanish omillari asosida samarali boshqaruv tizimini shakllantirish masalalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, investitsiya muhiti, davlat boshqaruvi, institutsional islohotlar, investitsiya siyosati, iqtisodiy transformatsiya.

Аннотация: В статье анализируются теоретические основы привлечения прямых иностранных инвестиций (ПИИ) в экономику, современные механизмы государственного управления и направления совершенствования инвестиционной политики в контексте Узбекистана. Также рассматриваются вопросы улучшения инвестиционного климата и формирования эффективной системы управления, основанной на институциональных реформах, цифровизации и факторах регионального развития.

Ключевые слова: Прямые иностранные инвестиции, инвестиционный климат, государственное управление, институциональные реформы, инвестиционная политика, экономическая трансформация.

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations of attracting foreign direct investment (FDI) into the economy, modern public administration mechanisms, and avenues for improving investment policy within the context of Uzbekistan. It also addresses issues related to improving the investment climate and establishing an effective management system based on institutional reforms, digitalization, and factors of regional development.

Keywords: Foreign direct investment, investment climate, public administration, institutional reforms, investment policy, economic transformation.

KIRISH

Globallashuv jarayonlari sharoitida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar iqtisodiy o‘sishning muhim omiliga aylanmoqda. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirishda TXI oqimini ko‘paytirishga alohida e’tibor qaratadi. Xususan, United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD) ma’lumotlariga ko‘ra, TXI nafaqat kapital oqimini, balki zamonaviy texnologiyalar, boshqaruv tajribasi va innovatsiyalarni ham olib kiradi. O‘zbekiston sharoitida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish jarayonida investitsiya siyosatini takomillashtirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Bu borada davlat boshqaruvining samaradorligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. ‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-598-son Qonuni loyihasi ko‘rib chiqilib, unga ko‘ra, hujjat Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasi mutaxassislari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi, xalqaro kapital harakatining jadallashuvi hamda davlatlar o‘rtasidagi investitsiyaviy raqobatning kuchayishi sharoitida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TXI) mamlakatlarning barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlovchi muhim omillardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlariga erishgan ko‘plab davlatlar sanoatni modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda yangi ish o‘rinlarini yaratishda aynan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalardan samarali foydalangan.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oddiy moliyaviy mablag‘lar oqimi bo‘libgina qolmay, balki ilg‘or texnologiyalar, zamonaviy boshqaruv usullari, innovatsion tajriba, xalqaro marketing tizimlari va yuqori malakali inson kapitalining kirib kelishini ham ta’minlaydi. Shu bois bugungi kunda davlatlar investitsiya hajmini oshirish

bilan bir qatorda, investitsiyalarning sifati, ularning iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga yo‘naltirilishi va uzoq muddatli iqtisodiy samaradorligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratmoqda.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar — bu xorijiy investor tomonidan korxona ustav kapitaliga uzoq muddatli asosda kiritiladigan mablag‘ bo‘lib, boshqaruvda ishtirok etish huquqini beradi. O‘zbekistonda investitsiya faoliyati huquqiy jihatdan O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni bilan tartibga solinadi. Mazkur qonun investorlar huquqlarining kafolatlari, teng sharoitlar yaratish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini belgilab beradi. Shuningdek, investitsiya jarayonlarini muvofiqlashtirish va yagona siyosat yuritishda O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi muhim institut sifatida faoliyat yuritadi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish samaradorligi ko‘p jihatdan davlat boshqaruvi tizimining sifati bilan belgilanadi. Xususan, samarali davlat boshqaruvi investorlarga qulay huquqiy muhit yaratish, mulk huquqini ishonchli himoya qilish, davlat organlari faoliyatining shaffofligini ta’minlash, korrupsiyani kamaytirish, ma’muriy tartib-taomillarni soddalashtirish hamda investitsiyaviy faoliyatni qo‘llab-quvvatlovchi institutlarni rivojlantirish orqali investitsiya muhitini yaxshilaydi. Natijada investorlarning mamlakat iqtisodiyotiga bo‘lgan ishonchi ortadi va uzoq muddatli kapital oqimi ko‘payadi.

Shu bilan birga, iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida investitsiyalarning hududlar kesimida yanada muvozanatli taqsimlanishini ta’minlash, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini izchil rivojlantirish, ma’muriy tartib-taomillarni yanada soddalashtirish, loyiha boshqaruvi tizimini takomillashtirish hamda mahalliy hokimiyat organlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur yo‘nalishlardagi izchil chora-tadbirlar investitsiya muhitining salohiyatini to‘liq namoyon etishga xizmat qilmoqda. Shu sababli davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish, institutsional islohotlarni chuqurlashtirish, davlat organlari faoliyatining ochiqligi va hisobdorligini oshirish, raqamli boshqaruvni keng joriy etish hamda investorlarga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi iqtisodiyotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishda davlat boshqaruvining o‘rni va ahamiyatini ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilish, rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish, O‘zbekistonda investitsiya muhitini takomillashtirishning mavjud muammolarini aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Dunning (1993) tomonidan ishlab chiqilgan eklektik (OLI) paradigmasi xorijiy investitsiyalarni jalb etish nazariyasining asosiy konsepsiyalaridan biri hisoblanadi. Mazkur nazariyaga ko‘ra, investorning investitsiya kiritish qarori uchta asosiy omilga — mulkiy ustunlik (Ownership), joylashuv ustunligi (Location) va ichkilashtirish afzalligi (Internalization)ga bog‘liq. Davlat boshqaruvi ayniqsa joylashuv ustunligini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bunda siyosiy barqarorlik, qulay investitsiya muhiti, rivojlangan infratuzilma va samarali huquqiy tizim investorlar uchun asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Porter (1990) mamlakatlarning raqobat ustunligi nazariyasida investitsiyalarni jalb etishda davlatning strategik siyosati, innovatsion rivojlanish va raqobat muhitini shakllantirish muhimligini asoslab bergan. Uning fikricha, davlatning vazifasi iqtisodiyotda sog‘lom raqobatni rivojlantirish, institutsional islohotlarni amalga oshirish va investorlarga teng sharoit yaratishdan iborat.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, investitsiya siyosatida barqarorlik va prognoz qilinuvchanlik muhim omil hisoblanadi. Masalan, Singapur, Janubiy Koreya va BAA davlatlari markazlashgan, lekin moslashuvchan investitsiya boshqaruvi modeli orqali yuqori natijalarga erishgan. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda investitsiya muhitini yaxshilash bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Xususan, Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan investorlar bilan ochiq muloqot mexanizmlari yo‘lga qo‘yildi, xalqaro reytinglarda mamlakat o‘rnini yaxshilashga qaratilgan choralar ko‘rildi.

O‘zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyatining huquqiy poydevori bir qator normativ-huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlangan.

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-598-son Qonuni investorlar huquqlari, kafolatlari va investitsiya faoliyatini amalga oshirish tartibini belgilaydi. Mazkur qonunda:

- investorlarning teng huquqliligi;
- investitsiyalarning daxlsizligi;
- milliylashtirish va rekvizitsiya qilishga yo‘l qo‘yilmasligi, qonunda belgilangan hollar bundan mustasno;
- zarar yetkazilganda to‘liq kompensatsiya to‘lash kafolatlari mustahkamlangan.

Ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 17-fevraldagi “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi

O‘RQ-604-son[1] Qonuni asosida tashkil etilgan maxsus iqtisodiy zonalarda investorlar uchun soliq va bojxona imtiyozlari berilishi investitsiya jozibadorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda investitsiyalarni jalb etishning asosiy maqsadi faqat kapital oqimini ko‘paytirish emas, balki yuqori texnologiyali, eksportga yo‘naltirilgan, ekologik barqaror va innovatsion loyihalarni iqtisodiyotga jalb etishdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan davlat boshqaruvi investitsiyalar hajmidan tashqari ularning sifati, samaradorligi va iqtisodiyotga qo‘shayotgan hissasini ham ta’minlashi zarur. Bu esa strategik rejalashtirish, samarali institutsional boshqaruv, investitsiya loyihalarini monitoring qilish, natijadorlikni baholash va investorlar bilan doimiy muloqotni yo‘lga qo‘yishni talab etadi.

TXIni jalb etishda quyidagi davlat boshqaruvi yo‘nalishlari muhim ahamiyatga ega:

- davlat xizmatlarini soddalashtirish;
- “yagona darcha” tamoyilini joriy etish;
- byurokratik to‘siqlarni qisqartirish.

Erkin iqtisodiy zonalarda investorlar uchun soliq preferensiyalari taqdim etilishi investitsiya jozibadorligini oshiradi. Davlat boshqaruvini raqamlashtirish korrupsiyaviy xavflarni kamaytiradi va investorlar ishonchini mustahkamlaydi. Hududlar kesimida investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va infratuzilmani rivojlantirish TXI oqimini muvozanatlashtirish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishda davlat boshqaruvining o‘rni tizimli, qiyosiy va statistik tahlil usullari asosida o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida 2020–2024-yillarda O‘zbekistonga jalb qilingan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi va o‘sish sur’atlari dinamik tahlil qilindi.

Shuningdek, investitsiya muhitiga ta’sir qiluvchi siyosiy, huquqiy, institutsional va infratuzilmaviy omillar guruhlash usuli yordamida baholandi. O‘zbekiston tajribasi rivojlangan davlatlar amaliyoti bilan qiyoslandi hamda investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi.

Tadqiqotning axborot bazasini UNCTAD ma’lumotlari, xalqaro tashkilotlar tahlillari, O‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari va mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tashkil etdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So‘nggi yillarda dunyo mamlakatlari o‘rtasida investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha raqobat sezilarli darajada kuchaydi. Shu sababli davlatlar investitsiya siyosatini takomillashtirish, raqamli davlat boshqaruvini rivojlantirish, davlat xizmatlarini elektron shaklga o‘tkazish, investorlarga “yagona darcha” tamoyili asosida xizmat ko‘rsatish hamda investitsiya loyihalarini kompleks qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etishga alohida e’tibor bermoqda. Bunday yondashuv investitsiya jarayonlarining tezkorligi va shaffofligini oshirib, investitsiyaviy xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar investitsiya muhitini yaxshilash, davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish va xorijiy investorlar uchun qulay sharoit yaratishga qaratilgan. Xususan, davlat xizmatlarini raqamlashtirish, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish, investorlar huquqlarini himoya qilish hamda davlat organlari faoliyati shaffofligini oshirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. OECD tahliliga ko‘ra, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda davlat boshqaruvi samaradorligi, tartibga solish sifati va institutsional rivojlanish ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilangan.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, samarali davlat boshqaruvi va TXI o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjud. Institutsional sifat yaxshilangani sari investorlarning ishonchi ortadi, investitsiya tavakkalchiligi kamayadi va investitsiya loyihalarining amalga oshirilish sur’ati tezlashadi. Ayniqsa, qonunchilikning barqarorligi, sud-huquq tizimining mustaqilligi, korrupsiyani kamaytirish va davlat organlari faoliyatining ochiqligi investitsiyaviy jozibadorlikni oshiruvchi asosiy omillar sifatida e’tirof etiladi.

Empirik tadqiqotlar natijalari O‘zbekiston iqtisodiyotida TXI oqimlari iqtisodiy o‘sish, sanoat ishlab chiqarishi, eksport hajmi va bandlik darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Ekonometrik modellar asosida o‘tkazilgan tahlillar xorijiy investitsiyalar va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasida qisqa va uzoq muddatli ijobiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, xususiy sektorni rivojlantirish, sanoatni diversifikatsiya qilish va xalqaro iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish doirasida investitsiya siyosatini takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Mamlakatda investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik bazasi takomillashtirilmoqda, investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish mexanizmlari kuchaytirilmoqda, erkin iqtisodiy zonalar faoliyati kengaytirilmoqda hamda xorijiy investorlar uchun soliq va

1 https://lex.uz/uz/docs/-4664142

bojxona imtiyozlari joriy etilmoqda. Shu bilan birga, davlat boshqaruvi tizimini raqamlashtirish, byurokratik to‘siqlarni qisqartirish va davlat xizmatlari sifatini oshirish investitsiya muhitini yanada yaxshilashga xizmat qilmoqda (1-jadval).

1-jadval. O‘zbekistonga jalb qilingan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi[2]

Yil	TXI hajmi, mlrd AQSH dollari	O‘sish sur’ati, %
2020	1,72	–
2021	2,50	45,3
2022	2,99	19,6
2023	3,01	0,7
2024	2,84	–5,8

Shuningdek, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishda hududlar kesimida investitsiyalarni yanada muvozanatli taqsimlash, infratuzilmani izchil rivojlantirish, ma’muriy tartiblarni yanada soddalashtirish, institutsional boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda investitsiya loyihalarining monitoringi va baholash tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur yo‘nalishlardagi izchil islohotlar investitsiya siyosatini yanada takomillashtirish, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish va xalqaro tajribalarni keng joriy etishga xizmat qilmoqda (2,3,4-jadvallar).

2-jadval. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishga ta’sir etuvchi davlat boshqaruvi omillari[3]

Davlat boshqaruvi omili	TXIga ta’siri	Natija
Siyosiy barqarorlik	Yuqori	Investor ishonchi ortadi
Huquqiy kafolatlar	Yuqori	Investitsiya tavakkalchiligi kamayadi
Soliq siyosati	O‘rta–yuqori	Investitsion jozibadorlik oshadi
Davlat xizmatlarini raqamlashtirish	Yuqori	Investitsiya jarayonlari tezlashadi
Korrupsiyani kamaytirish	Juda yuqori	Xorijiy investorlar soni ortadi
Infratuzilmaning rivojlanganligi	Yuqori	Ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi

3-jadval. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotga ta’siri[4]

Ko‘rsatkich	Natijasi
Yangi ish o‘rinlari	Bandlik darajasi oshadi
Zamonaviy texnologiyalar	Innovatsion rivojlanish tezlashadi
Eksport salohiyati	Eksport hajmi ortadi
Soliq tushumlari	Davlat budjeti daromadlari ko‘payadi
Mahalliy korxonalar	Raqobatbardoshlik oshadi
Infratuzilma	Ishlab chiqarish va logistika rivojlanadi

4-jadval. Samarali davlat boshqaruvining TXIga ta’siri[5]

Davlat boshqaruvi yo‘nalishi	Kutilayotgan natija
Qonunchilikni takomillashtirish	Investorlar ishonchi ortadi
“Yagona darcha” tizimi	Ro‘yxatdan o‘tish muddati qisqaradi
Elektron hukumat	Ma’muriy xarajatlar kamayadi
Soliq ma’murchiligi	Investitsion jozibadorlik oshadi
Investorlar huquqlarini himoya qilish	Uzoq muddatli investitsiyalar ko‘payadi
Korrupsiyaga qarshi kurash	Investitsiya xavfi kamayadi

2 https://lex.uz/docs/-4737511
3 Manba: muallif ishlanmasi.
4 Manba: muallif ishlanmasi.
5 Manba: muallif ishlanmasi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiyotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishning samarali davlat boshqaruvi iqtisodiy transformatsiya jarayonining muhim sharti hisoblanadi. Huquqiy kafolatlar, shaffof boshqaruv, institutsional barqarorlik va zamonaviy infratuzilma mavjud bo‘lgandagina investitsiya muhiti jozibador bo‘ladi.

Shu bois davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish, investitsiya siyosatini hududiy va tarmoq kesimida optimallashtirish hamda xalqaro standartlarga moslashtirish O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha qarorlarni ko‘rib chiqish, muhokama qilish va qabul qilishda yetakchi bo‘g‘in — Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi. Ko‘rsatilgan vazifalarni hal etishda, idoraviy bo‘ysunuvidan qat’i nazar, barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish uchun javobgarlik idora zimmasiga yuklatiladi.

Quyidagilar asosiy bosqichlar sifatida ajratib ko‘rsatilgan:

- investitsiya takliflarini kiritish va ma’lumotlar bazasini shakllantirish;
- bo‘lajak investorni tanlash;
- erishilgan ahdlashuvlarni rasmiylashtirish;
- investitsiya loyihalari amalga oshirilayotganini monitoring qilish.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish samarali davlat boshqaruvi, mustahkam huquqiy baza va investorlar huquqlarining ishonchli kafolatlariga asoslanadi. O‘zbekistonda investitsiya siyosatini liberallashtirish, qonunchilikni takomillashtirish va institutsional islohotlarni davom ettirish iqtisodiy o‘sishning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Investitsiya loyihalarini baholashda risk-menejment tizimini takomillashtirish.
2. Xorijiy investorlar uchun sud-huquq tizimining mustaqilligini kuchaytirish.
3. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish.
4. Hududiy investitsiya agentliklari faoliyatini kuchaytirish.
5. “Yashil investitsiyalar” va innovatsion loyihalarni rag‘batlantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezindentining 2018-yil 22-yanvardagi “2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat Dasturi to‘g‘risida”gi PF-5308-son Farmoni // URL: https://lex.uz/ru/docs/-3516847
2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-598-son Qonuni // URL: https://lex.uz/uz/docs/-4664142
3. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 17-fevraldagi “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi O‘RQ-604-son Qonuni // URL: https://lex.uz/docs/-4737511
4. Dunning, J. H. Multinational Enterprises and the Global Economy. Wokingham: Addison-Wesley Publishing Company, 1993. 687 p. ISBN: 0-201-17530-4.
5. Porter, M. E. The Competitive Advantage of Nations. New York: The Free Press, 1990. 855 p. ISBN: 0-02-925361-6.
6. A.S.Azizov. To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investetsiyalar jalb qilishda moliyaviy – iqtisodiy mamlakat xatarlarini kamaytirish. Iqt. fan. bo‘y. fals. (PhD) diss.Avtoreferat. – Toshkent/ 2021. -11b.
7. https://stat.uz — O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy veb-sayti.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**



+998 93 718 40 07 https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal t.me/yait_2100